

**YANGI O'ZBEKISTON JAMIYATIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT  
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

Naimov Dostonbek Rustamovich

Buxoro viloyati yuridik texnikumi

"Xususiy-huquqiy fanalar" kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yangi O'zbekiston jamiyatida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishdagi muammolarga bag'ishlangan. Maqolada jamiyatdagi huquqiy ongning bugungi holati o'rjanilib, qayd etilgan muammoni hal etish yo'llari taklif etilgan. Shuningdek mamlakatimizada olib borilayotgan har bir islohotning jamiyatda samarali olib borilishiga qaratilgan faoliyatni to'ri tashkil etish bo'yicha fikr-mulohaza yuritilgan. Bu yo'nalishning dolzarbliji XXI asr bosqlarida mamlakat hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va boshqa jabhalarida yuz bergan o'zgarishlar, davlat va huquqning mohiyatiga oid yangicha qarashlarning paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Mamlakatda barcha davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish maqsadida olib boriladigan huquqiy targ'ibot faoliyatini yanada kengroq olib borish zarurligi nazarda tutilgan. Huquqiy targ'ibotni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari rolini oshirish masalalari ifodalangan.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston-yangi jamiyat, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, samarali tashabbus, jamoatchilik institutlari, "Ommaviy axborot vositalari - to'rtinchi hokimiyat",adolat tuyg'usi, madaniyat, ma'naviyat, mafkura, yangicha dunyoqarash, huquqiy psixologiya, huquqiy tarbiya, yuksak huquqiy ong, ijtimoiy fikr.

**TENDENCIES OF DEVELOPMENT OF LEGAL CONSCIOUSNESS AND LEGAL CULTURE IN THE NEW UZBEK SOCIETY**

Naimov Dostonbek Rustamovich

Teacher of "Private and legal sciences"

department of Bukhara Regional Law College

**Annotation:** This article is devoted to the problems of developing legal awareness and legal culture in the new Uzbek society. The article examines the current state of legal consciousness in society and suggests ways to solve this problem. There was also a discussion on the organization of a network of activities aimed at the effective implementation of any reforms in the country. The urgency of this direction is determined by the changes that took place in the political, socio-economic, cultural and other spheres of life in the early XXI century, the emergence of new views on the nature of the state and law. There is a need to expand the legal advocacy activities carried out by all government agencies, civil society institutions and officials in the country in order to develop legal awareness and legal culture of citizens. The issues of increasing the role of the media in the implementation of legal advocacy are discussed.

**Key words:** New Uzbekistan - new society, civil society, public control, effective initiative, public institutions, "Mass media - the fourth power", a sense of justice, culture, spirituality, ideology, new worldview legal psychology, legal education, higher legal consciousness, social thought.

## **ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ПРАВОСОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ В НОВОМ УЗБЕКСКОМ ОБЩЕСТВЕ**

**Наимов Достонбек Рустамович**

*Преподаватель кафедры «Частных и юридических наук»  
Бухарского областного юридического колледжа*

**Аннотация:** Данная статья посвящена проблемам развития правосознания и правовой культуры в новом узбекском обществе. В статье исследуется современное состояние правосознания в обществе и предлагаются пути решения данной проблемы. Также состоялось обсуждение организации сети мероприятий, направленных на эффективную реализацию любых реформ в стране. Актуальность этого направления определяется изменениями, произошедшими в политической, социально-экономической, культурной и других сферах жизни в начале XXI века, появлением новых взглядов на природу государства и права. Необходимо расширить правозащитную деятельность, проводимую всеми государственными органами, институтами гражданского общества и должностными лицами страны в целях развития правосознания и правовой культуры граждан. Обсуждаются вопросы повышения роли СМИ в реализации правовой адвокатуры.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан – новое общество, гражданское общество, общественный контроль, эффективная инициатива, общественные институты, «СМИ – четвертая власть», правосознание, культура, духовность, идеология, новое мировоззрение, юридическая психология, юридическое образование, высшее правосознание, общественная мысль.

Hozirgi kunda, chinakkam huquqiy demokratik davlat qurish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda, eng ustuvor vazifa sifatida jamiyatimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish, qonun ustuvorligini ta'minlash eng muhim siyosiy masala bo'lib qolmoqda. Huquqiy davlatning eng muhim belgisi, shuningdek, uning shakllanishining ko'rsatkichi jamiyatning, fuqarolarning, huquqiy madaniyati darajasiga bog'liq bo'lib, ijtimoiy-huquqiy faoliyatni nazarda tutuvchi demokratik institutlarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Ayni paytda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishning samarali tizimini yaratish nihoyatda muhim. Yangi O'zbekiston jamiyatida ham bu borada qator muammolar mavjud bo'lib, mazkur huquqiy muammolarni quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning pastligi;

- huquqiy tartibsizlik holatlarining ortib borishi;
- huquqiy nigilizm va infantilizm;
- hayotning barcha jabhalarida hukm surayotgan huquqiy madaniyatning etishmasligi, odamlarning kundalik munosabatlari sohasidan (fuqarolar davlatning huquqiy tizimi, amaldagi qonun hujjatlari to'g'risida zarur bilimga ega bo'lmasa, o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshira olmasa, o'z manfaatlarini himoya qila olmasa);
- Ommaviy axborot vositalari faoliyati yetarli darajada emasligi, xususan surishtiruv jurnalistikasi rivojlanmaganligi;
- aholini, xususan, yosh avlodni huquqiy tarbiyalash va tarbiyalash tizimining izchil emasligi; ommaviy axborot vositalari faoliyatining samaradorligi yetishmasligi. Bu kabi muammolar yangi O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatning maqsad va vazifalarini chuqur anglab yetish hamda uni real hayotda to'g'ri tadbiq etish yo'lida asosiy to'siq yaratadi. Darhaqiqat, bu kabi muammolar nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro miqyosda kuzatish mumkin. Misol tariqasida “Zamonaviy rus jamiyatida huquqiy ong inqirozi mavjudligi, shuningdek, Rossiya 21-asrga samarasiz huquqiy tizim, rivojlanmagan huquqiy madaniyat va yuqori darajadagi jinoyatlar bilan kirib kelmoqda” degan fikr taniqli rus mutafakkiri va huquqshunosi P.I. Novgorodtsev tomonidan keltirib o'tilgan. Unga ko'ra olingan so'rov ma'lumotlarini tahlil qilinib, ushbu tahlil markazi quyidagi xulosalarga kelgan. Hozirgi vaqtida ruslarning katta qismi konstitutsiyaning Rossiya Federatsiyasining asosiy qonuni sifatidagi roliga ahamiyat bermasligi, va afsuski, so'ralgan har o'ninchi fuqaro Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining mazmunini yaxshi tushunishini aytdi. Fuqarolarning atigi beshdan bir qismi konstitutsiya mamlakat ehtiyojlariga to'liq javob beradi, deb hisoblaydi va qariyb yarmi Asosiy qonun mamlakatdagi ishlar holatiga mos keladimi yoki yo'qligi haqida hatto tasavvurga ham ega emas<sup>1</sup>. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Rossiya Federatsiyasi fuqarolarini, shu jumladan davlat organlari, ommaviy axborot vositalari va jamoat birlashmalarini huquqiy ta'lim va tarbiyalashning izchil, o'zaro bog'liq tizimini yaratish uchun mamlakatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha federal dasturni ishlab chiqish, uning tarkibida huquqiy ta'lim bo'yicha aniq kengash tuzish (tarkibiga huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari, madaniyat arboblari, kino, televide niye, ilmiy va ta'lim huquqiy muassasalar vakillari va boshqalar kirishi lozim), shu bilan birga mazkur organ aholining huquqiy ma'rifat darajasini o'rganishi, huquqiy bilimlarni tarqatish bo'yicha ishlarning shakl va usullarini umumlashtirishi zarur. huquqiy ta'limni tashkil etish, huquqiy materiallar va ularni taqdim etish shakllarini tahlil qilish, targ'ibot ishlarining eng dolzarb yo'naliishlarini belgilash, tavsiyalar va yo'riqnomalar ishlab chiqishi belgilab o'tilgan.

Biz esa yangi O'zbekiston va yangi jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlar samarali bo'lishi uchun bu kabi muammolarni yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan qat'iy choratadbirlar kompleksini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirmog'imiz lozim. Mazkur faoliyatni amalga oshirishda nafaqat davlat boshqaruva organlari va yuqori turuvchi tashkilotlar balki barcha davlat idoralari hamda fuqarolik jamiyatni institutlari tomonidan

<sup>1</sup> Yuriy Levada tahliliy markazi (Levada markazi) [Elektron resurs] URL:<http://www.Levada.ru> /fuqarolarning “Konstitutsiya haqida ruslar” savoli (sanasi 06/05/2015)

faol, tashabbuskor hamda oqilona faoliyat olib borilishi nazarda tutiladi. Bugungi kungacha aholini huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalgalari oshirib kelinayotganligi hamda bu islohotlar anchagina samarali natija berayotganligini ham ko'rishimiz mumkin. Bu borada, davlatimiz rahbarining 2019-yilgi PF-5618-sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi Farmoni mazkur sohaga qaratilgan alohida e'tibor bo'ldi. Unga ko'ra, quyidagilar asosiy vazifa etib belgilangan edi:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligini jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasidagi muvofiqlashtiruvchi organ etib belgilash;

davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy axborotdan keng ko'lamda foydalanishini ta'minlash, ularning ushbu sohada fuqarolik jamiyatni institutlari va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish bo'yicha muvofiqlashtirilgan faoliyatni tshkil etish;

ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan foydalanib, veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini samarali amalgalari oshirish bo'yicha “yo'l xaritasi”ni tasdiqlash belgilanib, konsepsiya “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!”, “Shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash”, “Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan g'oyalalar singdirish hamda “Shaxs – oila – mahalla – ta'lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” prinsipini tizimli va uzviy tashkil etish nazarda tutildi. Islohotning mantiqiy davomi sifatida 2020 yil “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonun hamda 2020-yil PF-5987-sonli “O'zbekiston respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmon natijasida ta'limning barcha shakllari joriy etilib, keng yuridik jamoatchilik ishtirokida yuridik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, shuningdek, huquqiy targ'ibotni samarali amalgalari oshirish va oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarni amalgalari oshirish boshlandi.<sup>2</sup> Biz qurmoqchi bo'lgan yangi O'zbekiston jamiyatida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishda davlat organlari, ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi idoralari, sud, prokuratura, ichki ishlar idoralari, adliya organlarigina emas, balki barcha fuqarolik jamiyatni institutlari, mansabdor shaxslar hamda keng jamoatchilik ishtirokida yangicha chora-tadbirlar amalgalari oshirilib, ularni ommaviy axborot vositalari yordamida keng targ'ib qilish lozim. Amalda esa fuqarolik jamiyatni institutlari va ommaviy axborot vositalari faoliyati hamkorligi va samarali faoliyati borasida qator muammolar borligini kuzatishimiz mumkin, ammo huquqiy targ'ibot borasidagi amalgalari oshirilayotgan ayrim tashabbuslar yetarlicha samara bermoqda. Misol uchun mamlakatimizda pandemiya sharoiti tufayli fuqarolarning huquqiy maslahatga bo'lgan ehtiyojini masofaviy tarzda qondirish maqsadida telegram messenjerida @huquqiy\_maslahatbot, @notariusmaslahatbot, @davxizmataloqa\_bot kabi

<sup>2</sup> “O'zbekiston respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2020-yil PF-5987-sonli Farmon

telegram botlari ishga tushirilib, internet tarmog‘ida O‘zbekiston qonun hujjatlari milliy bazasi – “LexUZ” faoliyati yanada takomillashtirildi. Mazkur saytdan foydalanuvchilar soni oxirgi 4 yilda 3,5 barobarga o‘sdi. Shuningdek, Adliya vazirligi tomonidan 5 ta huquqiy portal ([advice.uz](http://advice.uz) – [e-maslahat.uz](http://e-maslahat.uz), Milliy huquqiy internet portali, [bolahuquqlari.uz](http://bolahuquqlari.uz), [test.adliya.uz](http://test.adliya.uz), [hudud24.uz](http://hudud24.uz)) ishlab chiqilib, tadbirdorlar uchun bepul huquqiy ma’lumot va maslahat oladigan “Advice for business” yuridik portali ishga tushirildi. Aholini qonun qabul qilish jarayonlaridagi fizkrini o‘rganish maqsadida “Telegram” messendjeridagi huquqiy axborot kanalida “Qonunchilikka taklif” boti ishga tushurildi. Bu “...qonunlarning bevosita ijotkori xalq bo‘lishi kerak” degan fikrni amaldagi tastig‘i bo‘ldi. Fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini qay darajada ekanligi, huquqiy savodxonligi darajasi aniqlash bu boradagi faoliyat y’nalishlarini belgilab beradi. Misol tariqasida “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi tomonidan 2017-yilda jamoatchilik fikri so’rovi o’tkazilgan edi. O’tkazilgan so’rov ma’lumotlariga ko’ra fuqarolarning mutlaq ko’pchiligi, ya’ni 90,5 foizi O’zbekiston konstitutsiyasini “mamlakatdagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi bosh hujjat”, deb hisoblaydi va shu bilan birga, “Siz o’z fuqarolik huquqlaringizni bilasizmi?”, degan savolga fuqarolarning mutlaq ko’pchiligi 92,6 foizi tasdiqlovchi ovoz bergen edi.<sup>3</sup> Bundan tashqari Adliya vazirligi tashabbusi bilan O’zbekiston Respublikasi Adliya vaziri tomonidan tasdiqlangan umummilliy konsitutsiya imtihoni tashkil etish va o’tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi asosida 2021-yil 1-dekabrda o’tkazilgan umummilliy imtihon alohida samarali tashabbus bo’lib, har yili an’ana tariqasida o’tkaziladigan mazkur yangi jarayon mamlakatimizda fuqarolarimizning huquqiy ongi va madaniyatini qay darajada ekanligini real baholashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, fuqarolarga (ayniqsa, aholining kam ta’minlangan qatlamlariga) ijtimoiy masalalar va fuqarolik qonunchiligi bo'yicha yuridik yordam ko’rsatish bo'yicha ommaviy yuridik maslahatlar tarmog‘ini tashkil etish galdegisi vazifamizdir. O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi TDYu(Toshkent Davlat Yuridik Universiteti) hamda yuridik texnikumlar tarkibida aholiga huquqiy yordam ko’rsatadigan “Yuridik klinika” bo’limlari faoliyati tashkil etilgan bo’lib, ular faoliyatini yanada takomillashtirish hamda bu jarayon haqida ommaviy axborot vositalarida kengroq yoritish maqsadga muvofiq bo’lar edi. Misol uchun Adliya vazirligi yangi jamiyatimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida mazkur vazirlik matbuot xizmatining televideniya orqali doimiy huquqiy axborot beradigan kanalini tashkil etish to’g’ri bo’lardi. Shuningdek, yurtimizda surishtiruv jurnalistikasini yanada rivojlantirish hamda taqdim etilayotgan huquqy axborotni juda yuqori sifatda (yangi rivojlanish g’oyalarimiz yordamida) tayyorlash albatta o’z natijasini beradi. Vaholanki, ommaviy axborot vositalarini chinakkamiga “to’rtinchchi hokimiyat” sifatidagi roli juda muhimdir. Ommaviy axborot vositalarining eng keng tarqalgan turlari orqali mamlakatimizda olib borilyotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarida olib borilayotgan islohotlar yanada kengroq yoritib boorish haq qachongidan ham muhim

<sup>3</sup> “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi tomonidan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi mavzusida jamoatchilik fikri so’rovi. Kun.uz 24.11.2017

hisoblanadi. Zero bu – dabr talabi. Mamlakatimizda nafaqat davlat boshqaruvi organlari, balki fuqarolik jamiyati institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, assotsiatsiyalar, uyushmalar, markazlar, milliy-madaniy markazlar, klublar, jamg'armalar) ham huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni samarali olib borsa bu faoliyat rivojiga erishish mumkin. "2021-2025-yillarda Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6181-son Farmoni asosida nodavlat notijorat tashkilotlariga hamda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlariga 2021-yilda 16 milliard so'm, 2025-yilda 70 milliard so'm mablag' ajratish nazarda tutilgan. Ammo hozirgi kungacha real ijtimoiy hayotda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat darajasi juda pastligicha qolmoqda. Vaholanki, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Nodavlat notijorat tashkilotlari jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, nomoddiy ehtiyojlarni qondirish hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi. Biz "... boshqa ijtimoiy foydali maqsad" deganda albatta huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish masalasini nazarda tutishimiz mumkin. Mazkur institutlarning professional faoliyat olib borishiga erishish qurmoqchi bo'lgan yangi jamiyatimizning asosiy kuchiga aylanadi. Ya'ni huquqiy targ'ibotning puxta o'ylangan va samarali tizimigina jamiyatning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qodir bo'ladi, fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n to'rtinchi yalpi majlisida Adliya vaziri Ruslan Davletovning huquqiy targ'ibot va ma'rifatni yuksaltirish borasidagi axborotidan // Inson va Qonun, 2018 3-aprel, №13
2. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasining "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilda amalga oshirishga oid davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. -T: Ma'naviyat, 2017, 142-b
3. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori 1059-son, 2019 31-dekabr.nrm.uz
4. "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi mavzusida jamoatchilik fikri so'rovi. Kun.uz 24.11.2017
5. Yuriy Levada tahliliy markazi (Levada markazi) [Elektron resurs] URL:[http://www.Levada.ru/fuqarolarning "Konstitutsiya haqida ruslar" savoli \(sanasi 06/05/2015\)](http://www.Levada.ru/fuqarolarning%20Konstitutsiya%20haqida%20ruslar)
6. "2021-2025-yillarda Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6181-son Farmoni 04.03.21
7. "O'zbekiston respublikasida yuridik ta'lif va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil PF-5987-sonli Farmon

8. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi 2019-yilgi PF-5618-sonli Farmon
9. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi 1999-yil Qonun. Qonunchilik ma'lumotlari milliy ba'zasi, 21.04.2021
- 10.Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi (darslik). – “Adolat”, 2018, 287-b
11. “Huquqiy yetuklik – barkamolikka eltadi”. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.:Adolat 2011 6-b